

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVAZIYALAR VAZIRLIGI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

 "TASDIQLAYMAN"
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn
instituti rektori
O.R. Salixov
2025-yil " " "
Ro'yxatga olindi: № BR - 1.09
2025-yil " 29 " 08

DIZAYN-LOYIHALASH
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohalari: 210000 – San'at
Ta'lim yo'nalishlari: 60210400 – Dizayn (libos va gazlamalar)

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi: DL1742		O'quv yili: 2025-2026	Semestr: 5-6	Kreditlar: 12
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili: O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari: 6/6
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dizayn-loyihalash	180	180	360
2	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda “Dizayn-loyihalash” fanining asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ushbu kurs talabalarda ijodiy fikrlash, fantaziya, did mukammaligi va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, hamda kiyimlarni ishlab chiqarishda badiiy loyihalash jarayonida dizayner ijodiga kerak bo'lgan professional bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • iste'molchilarning kiyimga bo'lgan talablarini qondirish yo'lidagi dizaynerlar oldidagi masalalarni echish; • kiyim loyihalashtirishning progressiv usullarini o'rganish, hamda kiyimni loyihalash jarayonini tashkil etish va yo'lga qo'yishni mukammallashtirish yo'nalishlarini o'rganish; • turli vazifalarga mo'ljallangan va har xil kiyim turlarining loyihalarini yaratish, badiiy bezash sohasidagi ilmiy yo'nalishlarni o'rganish va ularning tahlil qilish. <p style="text-align: center;">II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</p> <p style="text-align: center;">Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>“Dizayn-loyihalash” fani dizayn yo'nalishidagi mutaxassislik fanlaridan asosiysi bo'lib, zamonaviy kiyimni loyihalash va badiiy bezash, ijodiy-badiiy loyihalashda ijodiy uslublardan foydalanishni, tassavuran-fikran bog'lanish (assotsiatsiyalash) va ijodiy fikrlash asoslarini qo'llashni o'rgatuvchi fan sifatida dolzarbdir.</p> <p>I-mavzu. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasini yaratish uchun loyihaning tadqiqot va eskiz qismi.</p> <p>Transformatsiyaning turli xil usullari yordamida kiyimlar kolleksiyasini ishlab chiqish: libosda transformatsiya turlarini</p>			

o'rganish va tahlil qilish.

Transformatsiya (lotin tilidan olingan bo'lib, transformatio, ya'ni, o'zgarish) - biror narsaning o'zgarishi - tashqi ko'rinishi, shakli, muhim xususiyatlarining o'zgarishi. Ushbu atamani libos dizayni doirasida ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin: "transformatsiya - bu ob'ekt yoki hajmiy-fazoviy strukturaning loyihalash jarayonida boshlang'ich shakllari va parametrlarini o'zgartirishidir".

Libos va uning elementlarini loyihalash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan ta'rifga ko'ra, o'zgarishlar odamning ishtirokida mahsulotning butun xizmat muddati davomida o'zgarishi mumkin (estetik jihatdan va hajmiy qiyofasini o'zgartirishi mumkin). Umuman olganda, o'zgartirilgan ob'ektni tavsiflab, uni "qayta tuzish asosida turli xil konstruktiv va estetik holatlarni qabul qilishga qodir bo'lgan moddiy tuzilma" deb ta'riflash mumkin.

2-mavzu. Ajratish-biriktirish, cho'zish va qisqartirish, kiyim qismlari hajmi va shaklini o'zgartirish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlarini yakunlash. Texnik eskizlarni yakunlab, texnologik birikuvlarni aks ettirish.

Transformatsiya usuli dizayn-loyihalashda ko'p murojaat qilinadigan o'zgartirish yoki qayta shakl hosil qilish usuli hisoblanib, transformatsiya jarayoni dinamika, harakat hamda o'zgarishlar bilan kuzatiladi. Transformatsiya quyidagicha amalga oshiriladi:

- Ajratish-biriktirish, cho'zish va qisqartirish, kiyim qismlari hajmi va shaklini o'zgartirish prinsiplari asosida:
- bir shaklning boshqasiga aylanishi (masalan, uzun yubka iplar yordamida kalta yubkaga aylandi);
- libos qismlarini bir shakl ichida o'zgartirish (masalan, yoqaning uchlari yig'ilib, taxlanib, bo'yinga o'ralib).
- kinetizm (yunon tilidan "kinetikos" - harakatga keltirish) - bu shaklning harakati, undagi har qanday o'zgarishlar g'oyasiga asoslangan loyihalashning kombinatorika usuli. Kinetizm usuli mato guli, dekor, shakl dinamikasini yaratishga asoslanadi.

3-mavzu. Kiyim qismlari va elementlarini boshqalari bilan almashtirish, libos qismlarini turlicha joylashtirish, yaxlit libos shaklining paydo bo'lishi va yo'qolishi, libos qismlari yoki uning o'zini to'la xolida boshqacha usul bilan kiyish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlarini yakunlash. Texnik eskizlarni yakunlab, texnologik birikuvlarni aks ettirish.

"O'zgartirish" transformatsiyasi bitta elementni olib tashlash va

boshqasini almashtirishni o'z ichiga oladi, masalan, olinadigan uzun qismi qisqa elementlarga almashtiriladi.

Transformatsiyaga ta'rif beruvchi sinonimlar (ma'noga yaqin so'zlar) - o'zgartirish, ko'rsatish, variant, yo'l, reviziya, to'ntarish, sindirish, qayta tug'ilish, metamorfoz, sinish, qayta qurish, qayta ishlash, qayta ko'rib chiqish.

Tabiatda ko'plab o'zgarishlar mavjud (kapalak, daraxt va boshqalar). Shunga ko'ra "Transformator" shaklini o'zgartiradi, almashtiradi, o'zga ko'rinish kasb etadi.

4-mavzu. Bajarilgan qoralama va texnik eskizlar hamda ijodiy tadqiqotlar asosida kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish.

Yangi kiyim modelini loyihalashda dizayner konstruktorga tushunarli bo'lishi uchun kiyim eskizining bir nechta variantlarini yaratadi: for-eskiz, ijodiy eskiz, texnik eskiz, fashion illyustratsiya.

For-eskiz (eskiz) – aniq o'lcham va nisbatlarga ega bo'lmagan qo'pol, to'satdan chizilgan eskiz. Bu g'oyaning boshlanishi, ijodiy bosqich bo'lib, unda xohlagan narsani tasvirlash mumkin, bunday eskiz tasavvur erkinligini cheklamadan holda bajariladi. Erkin ishlash va tajriba qilish mumkin. Eskiz odatda qo'lda amalga oshiriladi.

Ijodiy eskiz - nafaqat kiyimning umumiy shakli, balki uning alohida elementlari ham batafsil chizilgan modellar yoki to'planning rangli eskizi.

5-mavzu. Rangli eskizlar ustida ishlash.

Suvli texnikalarga keladigan bo'lsak, akvarel va guash texnikalari yangi libos namunalari eskizlarini chizishning o'ziga xos xususiyatlariga ega yo'lidir. Ularning imkoniyatlari shulardan iboratki, bu bo'yoqlarda barcha kamalak ranglari mujassam bo'lganligi tufayli ular yordamida xohlagan ranglarni chiqara olish va turli fakturalar chiqarish orqali yangi xildagi mato hamda libos namunalari yaratish mumkin. Akvarel qog'oz tanlaydi, tarshon qog'ozlaridan foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

6-mavzu. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasidagi namunalarni yaratish. Taklif etilayotgan liboslarning transformatsiyalanuvchi detallarining maketlarini bajarish. Loyihadagi kolleksiyaga mato va materiallar, furnitura tanlash. Tikilish texnologiyasini ishlab chiqish. Texnologik sxemalarni bajarish.

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va o'zaro muayyan ta'sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya'ni uni hajmiy-fazoviy struktura deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba'zan oddiy va ixcham, ba'zan esa juda murakkab bo'lishi mumkin. Hajmiy-fazoviy stukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat'iy nazar undagi barcha

elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kiyim qismlarini yig'ishning texnologik ketma-ketligi model namunasini yaratishning asosiy qismi hisoblanib, detallarni biriktirish va ularga to'g'ri texnologik ishlov berish, va albatta mahsulotning sifati darajasini belgilaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Har bir operatsiyani bajarish uchun texnologik ketma-ketlikda, joriy texnik darajaga mos keladigan asbob-uskunalar yordamida ilg'or qayta ishlash usullari aniqlanadi va yotqiziladi.

7-mavzu. Tasdiqlangan eskiz va maketlar asosida kolleksiyadagi libos namunalarining hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish.

Kiyimning hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish – bu aniq maqsadlarga asoslangan holda uning shaklini yaratish jarayoni. Zamonaviy kostyumni yaratish - bu insonning tasavvuriga va niyatiga muvofiq shakl yaratish jarayoni. Dizaynning g'oyasi badiiy va funktsional ma'noga ega bo'lgan holda, faqat moddiy timsollash orqali amalga oshiriladi. Binobarin, kiyim shaklini hosil qilishning o'ziga xosligi inson qiyofasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat uning nisbati va plastikasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqish mumkin.

8-mavzu. Kolleksiya-dagi modellarni tayyorlash.

Kolleksiya-dagi kiyim modellari namunalarini yaratish. Tanlangan ashyolarni asoslash. Tasdiqlangan eskiz va maketlar asosida kolleksiyadagi libos namunalarini tayyorlash.

9-mavzu. Badiiy bezak, aksessuarlar ustida ishlash. Kolleksiya-dagi liboslarga yakuniy ishlov berish. Kolleksiya taqdimotining konsepsiyasini ishlab chiqish. Portfolio tayyorlash. Loyiha-ni taqdimotini tayyorlash. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish. Kolleksiya namoyishini tashkillashtirish.

Kiyimdagi bezak (dekor) – bu bu kiyimning mo'ljallanishiga qarab bezatish turi. So'nggi ming yillik ichida san'atning rivojlanishi va kiyim ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamlar matoga va libosga badiiy bezak berishning turli usullarini o'ylab topdi: matoni erkin bo'yash (batik), badiiy to'qish, kashtachilik, applikasiya, quroq (mato bo'laklarini bir-biriga ulash, pervorg), charmga ishlov berish, biser tikish va h.k.

Kolleksiya-dagi liboslarga yakuniy ishlov berish. Kolleksiya taqdimotining konsepsiyasini ishlab chiqish. Portfolio tayyorlash.

Loyiha-ni taqdimotini tayyorlash. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish. Kolleksiya namoyishini tashkillashtirish.

Bolalar uchun libos modellarini loyihalash.

10-mavzu. Maktab yoshigacha bo'lgan (3-6 yosh) bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

11-mavzu: Kichik maktab yoshidagi (7-10) yosh bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

12-mavzu: Katta maktab yoshidagi (11-13 yosh) bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish.

Katta maktab yoshidagi bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

13-mavzu. O'smirlar (14-18 yosh) uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish.

O'smirlar uchun mo'ljallangan kiyimlarga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

14-mavzu. Kolleksiya taqdimotining konsepsiyasini ishlab chiqish. Portfolio tayyorlash. Loyihaning taqdimotini tayyorlash. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish. Kolleksiya namoyishini tashkillashtirish. Skeychbukni rasmiylashtirish. Yakuniy planshet ustida ishlash.

Kolleksiyadagi liboslarga yakuniy ishlov berish. Kolleksiya taqdimotining konsepsiyasini ishlab chiqish. Portfolio tayyorlash. Loyihaning taqdimotini tayyorlash. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish. Kolleksiya namoyishini tashkillashtirish. Skeychbukni rasmiylashtirish. Yakuniy planshet ustida ishlash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasini yaratish uchun loyihaning tadqiqot va eskiz qismi. Transformatsiyaning turli xil usullari yordamida kiyimlar kolleksiyasini ishlab chiqish: libosda transformatsiya turlarini o'rganish va tahlil qilish.

2. Ajratish-biriktirish, cho'zish va qisqartirish, kiyim qismlari hajmi va shaklini o'zgartirish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlari ustida ishlash. Texnik eskizlarni bajarish.

3. Kiyim qismlari va elementlarini boshqalari bilan almashtirish, libos qismlarini turlicha joylashtirish, yaxlit libos shaklining paydo bo'lishi va yo'qolishi, libos qismlari yoki uning o'zini to'la xolida boshqacha usul bilan kiyish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlari ustida ishlash. Texnik eskizlarni bajarish.

4. Bajarilgan qoralama va texnik eskizlar hamda ijodiy tadqiqotlar asosida kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish.

5. Rangli eskizlar ustida ishlash.

6. Rangli eskizlar ustida ishlash.

7. Uch yoqlama texnik eskizlar ustida ishlash.

8. Uch yoqlama texnik eskizlar ustida ishlash.

9. Transformatsiyalanuvchi libos modellari kolleksiyasidagi namunalarni yaratish. Taklif etilayotgan liboslarning transformatsiyalanuvchi detallarinig maketlarini bajarish. Loyihadagi kolleksiyaga mato va materiallar, furnitura tanlash.

10. Tasdiqlangan eskiz va maketlar asosida kolleksiyadagi libos namunalarining hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish.

11. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 1-model.

12. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 1-2 -model.

13. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 2-3 -model.

14. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 3-model

15. Badiiy bezak, aksessuarlar ustida ishlash. Kolleksiyadagi liboslarga yakuniy ishlov berish. Kolleksiya taqdimotining konsepsiyasini ishlab chiqish. Portfolio tayyorlash. Loyihaning taqdimotini tayyorlash. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish. Kolleksiya namoyishini tashkillashtirish

16. Maktab yoshigacha bo'lgan (3-6 yosh) bolalar uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash.

17. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

18. Kichik maktab yoshidagi (7-10 yosh) bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish. Kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash.

19. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish.

20. Katta maktab yoshidagi (11-13 yosh) bolalar kiyimlarini loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish. Katta maktab yoshidagi bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash.

21. Dizayn - loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab chiqish.

22. O'smirlar (14-18 yosh) uchun kiyimlarni loyihalash va badiiy bezashning xususiyatlarini o'rganish. O'smirlar uchun mo'ljallangan kiyimlarga qo'yiladigan talablarni va o'ziga hos xususiyatlarini o'rganib chiqish. Moda yo'nalishini o'rganish va kolleksiyaning konsepsiyasini ishlab chiqish. Eskiz-loyiha ustida ishlash.

23. Dizayn-loyihaning badiiy-konstruktorlik qismi ustida ishlash: material tanlash va uni asoslash; texnologik ishlov berish va va konstruktiv echimlari ustida ishlash va ularni asoslash; konfeksion kartalarni ishlab

chiqish.

24. Bolalarga mo'ljallangan kolleksiyadagi libos namunalarini yaratish. Tanlangan ashyolarni asoslash. Tasdiqlangan eskiz va maketlar asosida kolleksiyadagi libos namunalarining hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish.

25. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 1-2-model.

26. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 3-model.

27. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 4-model.

28. Kolleksiyadagi modellarni tayyorlash. 5-model.

29. Kolleksiyadagi kiyim modellarining badiiy bezagi, aksessuarlari ustida ishlash.

30. Kolleksiyaning fotosessiyasi ustida ishlash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Libos dizaynida transformatsiya va kombinatorika usullarini qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tahliliy ma'lumotlar asosida referat tayyorlash.
2. Ajratish-biriktirish, cho'zish va qisqartirish, kiyim qismlari hajmi va shaklini o'zgartirish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlarini yakunlash. Texnik eskizlarni yakunlab, texnologik birikuvlarni aks ettirish.
3. Kiyim qismlari va elementlarini boshqalari bilan almashtirish, libos qismlarini turlicha joylashtirish, yaxlit libos shaklining paydo bo'lishi va yo'qolishi, libos qismlari yoki uning o'zini to'la xolida boshqacha usul bilan kiyish prinsiplariga asoslangan transformatsiyalanuvchi libos eskizlarini yakunlash. Texnik eskizlarni yakunlab, texnologik birikuvlarni aks ettirish.
4. Konsepsiyaning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi "mood board"ni tayyorlash.
5. Rangli eskizlarni yakunlash.
6. Rangli eskizlarni turli texnikalarni qo'llab tasvirlash.
7. Taklif etilayotgan modellarning texnik eskizlarini uch tomonlama tasvirlarini yakunlash.
8. Taklif etilayotgan modellarning texnik eskizlarini uch tomonlama tasvirlarini yakunlash.
9. Maketlarni yakunlash.
10. Maket va detallarga tuzatishlar kiritish.
11. Kolleksiyadagi 1-modelning detallariga aniqlik kiritish.
12. 1-modelni yakunlash. 2-modelning detallariga aniqlik kiritish.
13. 2-modelni yakunlash. 3-modelning detallariga aniqlik kiritish.

14. 3-modelni yakunlash.
15. Kolleksiyadagi modellarga badiiy bezak berish ishlarini yakunlash. Aksessuar va to'ldiruvchilarni tayyorlash. Transformatsiyalanuvchi zamonaviy liboslar kolleksiyasining portfoliosini tayyorlash.
16. Maktab yoshigacha bo'lgan (3-6 yosh) bolalar kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishini yozma sharhlash va uning tahlili asosida taqdimot tayyorlash.
17. Maktab yoshigacha bo'lgan (3-6 yosh) bolalar kiyimlari bo'yicha tayyorlangan dizayn-loyihaning badiiy-konstruktorlik qismini yakunlab kelish.
18. Kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishini yozma sharhlash va uning tahlili asosida taqdimot tayyorlash.
19. Kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimlari bo'yicha tayyorlangan dizayn-loyihaning badiiy-konstruktorlik qismini yakunlab kelish.
20. Katta maktab yoshidagi (11-13 yosh) bolalar kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishini yozma sharhlash va uning tahlili asosida taqdimot tayyorlash.
21. Katta maktab yoshidagi (11-13 yosh) bolalar kiyimlari bo'yicha tayyorlangan dizayn-loyihaning badiiy-konstruktorlik qismini yakunlab kelish.
22. O'smirlar (14-18 yosh) kiyimlari uchun zamonaviy moda yo'nalishini yozma sharhlash va uning tahlili asosida taqdimot tayyorlash
23. O'smirlar (14-18 yosh) kiyimlari bo'yicha tayyorlangan dizayn-loyihaning badiiy-konstruktorlik qismini yakunlab kelish.
24. Maket va detallarga tuzatishlar kiritish.
25. Kolleksiyadagi 1- va 2-modelning detallariga aniqlik kiritish.
26. 1-2-modellarni yakunlash. 3-modelning detallariga aniqlik kiritish.
27. 3-modelni yakunlash. 4-modelning detallariga aniqlik kiritish.
28. 4-5-modellarni yakunlash.
29. Kolleksiyadagi modellarga badiiy bezak berish ishlarini yakunlash.
30. Aksessuar va to'ldiruvchilarni tayyorlash. Yakuniy ko'rik uchun planshetni yakunlash va libos modellari namoyishini tashkiliy ishlarini amalga oshirish.

3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • badiiy loyihalash sohasidagi tarixiy tajribalar; • zamonaviy moda yo'nalishi tendensiyalari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; • libos dizayn va gazlamalarni badiiy loyihalashning zamonaviy vosita va usullarini; • ijod qilishning turli usullarini; • sodda va murakkab namunalar loyihasini yaratishni; • liboslarni loyihalash sohasidagi terminologiya, asosiy tushuncha va asosiy loyihalash metodlarini; • libos kolleksiyasining kompozitsiyasini; • dizayn-loyihaga qo'yiladigan talablarni; • dizayn-loyihaga qo'yiladigan talablarning batafsil spetsifikatsiyasini tuzishni; • badiiy loyihalashda qo'llaniladigan asosiy materiallar, ularning hususiyatlari, plastikasi, tektonikasini tushunish va ularni qo'llash; • assotsiativ fazoviy, siymoli fikrlash; • konseptual fikrlash va dizayn yo'nalishida tadqiqot olib borish; • o'z takliflarini ilmiy asoslash; • liboslarni maketlash va modellashtirish; • berilgan materialda loyihani bajarish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • ma'lum mavzudagi yoki buyurtma asosidagi ijodiy loyihani bajarish va uni asoslash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulot - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid ma'lumotlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy vazifalarni topshirish.</p>

Asosiy adabiyotlar

1. F.Z.Ataxanova "Dizayn-loyihalash", OO'Yu talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. - 368 b.
2. X.X.Komilova, Vohidova U.A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. - 188 b.
3. Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011).
4. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма", Ростов -на -Дону Феникс 2000 г.481 стр.
- 5.Торобаев Б.П., Ж.У.Мырхалыков "Орнаментальная композиция в дизайне швейных изделий" уч. пособие. Издательский центр ЮКГУ им.М.Ауезова, г.Шымкент.-134 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Sadikova N. "O'zbek milliy kiyimlari", o'quv qo'llanma, Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006 y.-191 b.
3. "An introduction to Silk Painting". Caroline Earl, "D&S Books Ltd", 2002.
4. Гусейнов Г.М., Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю., Ляхова Н.Б., Финашина Е.М. "Композиция костюма", учеб. пособие. – М. Издательский центр «Академия», 2003 г. – 432 с.
5. "Fashion Design. Drawing Course". Caroline Tatham, Julian Seaman, "Barron's Educational Series", 2003
6. "Field guide: How to be a fashion Designer". Marcarena San Martin. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications. First published in 2009 in the United States of America by Rockport Publishers, a member of Quayside Publishing Group.
7. Rahmatullaeva D., Xodjaeva U., Ataxanova F. "Libos tarixi", darslik, Toshkent: "Cano-standart" nashriyoti, 2015 y.-336 b.
8. Проектирование костюма : учеб. пособие / Л. М. Тухбатуллина, Л. А. Сафина, В. В. Хамматова. - Ростов н/Д : Феникс, 2007. - 284 с.

9. Пармон Ф.М. "Композиция костюма", учеб. – М.: Легпробьитиздат, 1997 г. – 318 с.
10. Петушкова Г.И. "Проектирование костюма", учеб. – М.: Издательский центр «Академия», 2004 г. – 416 с.
11. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма", учеб. пособие. Ростов-на-Дону. Феникс, 2000 г.-265 с.
12. Захарова И.В. и др. "Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана", учеб. пособие. Москва: "Наука", 1989 г.-240 с.
13. Мерцалова М.Н. "Костюм разных времен и народов", учеб: В 4 т. Т.2. – М.: Академия Моды, СПб.: Чарт Пилот, 2001. – 432 с., ил., шв. нл.
14. Ефимова Л.В, Л.В. Ефимова, Т.В. Алешина, С.Ю. Самонин. "Костюм в России XV-XX в", учеб. – М.: Арт-Родник, 2000г. – 231 с.: нл.
15. Данилова О.Н. "Костюм народов Зарубежной Азии", учеб. пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2004 г. – 176 с.

Internet saytlari

1. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. www. edu. Uz
3. www.sarafan.ru
4. www.ocinka.ru
5. www.textile-press. ru
6. www.textilegroup.ru

8	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: Z.Xaitova - MRDI, "Libos dizayni" kafedراسи mudiri.</p>
9	<p>Taqrizchilar: U.Raxmatullayeva - TTESI, "Moda va dizayn" kafedراسи professori, PhD. (turdosh OTM) A.Rashidov - MRDI, "Libos dizayni" kafedراسи dotsenti.</p>